

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И BIOTEХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	68-93
08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIISH B'YIYCHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Maxmudov Tursunpulat Davronovich</i> INVESTITSIYA MANBALARINING MINTAQAGA IKTISODIYETIGA TA'BSIRI	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> CHEGARA BOJXONA POSTLARI FAOLIYATIDA "AVTOMATLASHTIIRILGAN I'ULOVCHI XARAKATI" MOBIL ILOVASINI JORIY ETISH ORQALI IKTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIIRISH.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	159-164
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Saidova Kamola Uskanbaevna</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI	174-179
<i>Ochilova Guzal Aralovna</i> YUKSAK MA'NAVIYAT-MANFAATLAR BIRLIGINI TA'MINLASHNING MU'XIM OMILI.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQUVCHI OMILLAR	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA)	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIK LARNING KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY	353-358
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ	359-365
<i>Mamatallyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI	366-378
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ	397-406
<i>Ashurova Sitora Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	436-442

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO

SIFATIDA443-448

11.00.00–Филология фанлари

Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna
dosent, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), Andijon davlat
chet tillari instituti
Mahmudova1076@gmail.com

LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Morfologik tadqiqotlarda darajalanish hodisasi haqidagi dastlabki umumiy qarashlar sifat (ravish) darajasining an'anaviy talqinlarida, uch va undan ortiq a'zoli egalik, kelishik, zamon, shaxs-son kabi kategoriyalar tavsiflarida, ma'noning morfologik yo'l bilan kuchaytirish-ozaytirilishi, so'z trukumlarining o'zaro bir-biriga o'tishi (transpozitsiya), funktsional formalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) orqali bir so'z turkumining boshqa so'z turkumi xususiyatiga ham ega bo'lishi kabi masalalar talqinlarida ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, forma yasalish doirasi, an'anaga ko'ra, forma yasovchi affikslar va yordamchi so'zlar bilan chegaralanar edi. So'nggi yillarda so'zlarning takroriy va juft ko'rinishlari ham forma yasalishlari sifatida talqin etilmoqda. Morfemali ko'rsatkichlar affikslar (prefikslar va suffikslar bilan) va affiksoidlar orqali namoyon bo'ladi. Affiksoidlar tarkibida biror bir belgining katta yoki oliy, chegaraviy darajasini bildiruvchi prefiksoidlar farqlanadi.

Kalit so'zlar: gradasiya, darajalanish hodisasi, kelishik, zamon, shaxs-son kabi kategoriyalar, morfemali ko'rsatkichlar, so'z qo'shish.

Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna
Associate Professor, Doctor of Philosophy
in Philology (PhD), Andijan State Institute
of Foreign Languages

EXISTENCE OF LINGUISTIC GRADATION AS A PARADIGM AT THE MORPHOLOGICAL, LEXICAL-SEMANTIC LEVEL

Abstract. In morphological studies, the first general views about the phenomenon of gradation are based on the traditional interpretations of the level of quality (advancement), descriptions of categories such as possessives with three or more members, agreement, tense, person-number, the morphological amplification-reduction of meaning, the transition of word truisms to each other (transposition), functional forms (adjectives, adverbs, nouns of action) can be seen in the interpretations of issues such as the fact that one word group has the characteristics of another word group. As you know, the scope of form formation was traditionally limited to form-forming affixes and auxiliary words. In recent years, repeated and double appearances of words have also been interpreted as formations. Morpheme indicators are represented by affixes (with prefixes and suffixes) and affixoids. In the composition of affixoids, there are prefixoids that indicate a large or high, borderline level of a character.

Key words: gradation, gradation event, agreement, tense, categories such as person-number, morpheme indicators, adding words.

Махмудова Нилуфархон Равшановна
Доцент, доктор философских наук (PhD)
Андижанский государственный институт
иностранных языков

СУЩЕСТВИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ГРАДАЦИИ КАК ПАРАДИГМЫ НА МОРФОЛОГИЧЕСКОМ, ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОМ УРОВНЕ

Аннотация. В морфологических исследованиях первые общие представления о явлении градации базируются на традиционных трактовках уровня качества (продвинутости), описаниях таких категорий, как притяжательные падежи с тремя и более членами, согласие, время, лицо-число, морфологическое усиление-редукция значения, переход словесных триумфов друг в друга (транспонирование), функциональные формы (прилагательные, наречия, существительные действия) можно увидеть в трактовках таких вопросов, как то, что одна группа слов имеет характеристики другой группа слов. Как известно, сфера формообразования традиционно ограничивалась формообразующими аффиксами и вспомогательными словами. В последние годы повторные и двойные появления слов также трактуются как образования. Морфемные показатели представлены аффиксами (с приставками и суффиксами) и аффиксоидами. В составе аффиксоидов имеются префиксоиды, обозначающие большой или высокий, пограничный уровень персонажа

Ключевые слова: градация, событие градации, согласие, время, такие категории, как лицо-число, морфемные показатели, сложение слов.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N41>

Morfologik tadqiqotlarda darajalanish hodisasi haqidagi dastlabki umumiy qarashlar sifat (ravish) darajasining an'anaviy talqinlarida, uch va undan ortiq a'zoli egalik, kelishik, zamon, shaxs-son kabi kategoriyalar tavsiflarida, ma'noning morfologik yo'l bilan kuchaytirish-ozaytirilishi, so'z trukumlarining o'zaro bir-biriga o'tishi (transpozitsiya), funktsional formalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) orqali bir so'z turkumining boshqa so'z turkumi xususiyatiga ham ega bo'lishi kabi masalalar talqinlarida ko'zga tashlanadi. H.Ne'matovning "Turkiy tillar morfologik sistemasida oraliq uchinchi (masalaning qo'yilishiga doir)" maqolasida va morfologik darajalanish masalasini an'anaviy (empirik) tilshunoslikning formal mantiq metodologiyasi asosida emas, balki dialektik mantiq yo'l-yo'rig'i asosidagina o'rganish mumkinligi uqtiriladi[1.16].

Ma'lumki, forma yasalish doirasi, an'anaga ko'ra, forma yasovchi affikslar va yordamchi so'zlar bilan chegaralanar edi. So'nggi yillarda so'zlarning takroriy va juft ko'rinishlari ham forma yasalishlari sifatida talqin etilmoqda. Shunday bo'lsa, forma yasalishi avvalo o'zining oddiydan murakkabga tuzilish belgisiga ko'ra quyidagicha darajalanishga ega bo'ladi: 0(nol) – sintetik (affiks) – analitik (takror) – analitik (juft). Ushbu darajalanish zanjiriga uzvlarining semantic tabiati bo'yicha qaralsa, ularda lug'aviy ma'no chegarasidan (xususiylikdan) Grammatik ma'no (umumiylik tomon)ga bosqichli o'tib borilayotganligini ko'rish mumkin: juftlash (ota-ona) – takrorlash (tog'-tog') – ko'makchi fe'lli analitik forma (ishlab yurmoq) – to'liqsiz fe'lli analitik forma (kitob edi) – affiksli forma (kitoblar) – nol forma (0) kabi.[2.32]

Morfemali ko'rsatkichlar **affikslar (prefikslar va suffikslar bilan)** va **affiksoidlar** orqali namoyon bo'ladi. Affiksoidlar tarkibida biror bir belgining katta yoki oliy, chegaraviy darajasini bildiruvchi prefiksoidlar farqlanadi: **ko'p, yirik, o'ta, super, to'la** va boshq., masalan, ko'p qavatli uy, *yirik gabaritli yuk, o'ta mahfiy, supertanker, to'la o'lchovli* va biror bir belgining yetarli bo'lmagan, katta bo'lmagan darajasini ko'rsatuvchi prefiksoidlar: **kam-, yarim-; non-**,

im-, under, masalan, *kamquvvat, kamqon, kamchiqim, yarimjon, yarimavtomat, yarimorol; nonmobile, immature, underdeveloped*.

Morfemali ko'rsatkichlar sifatida shuningdek **kichraytiruvchi suffikslar** namoyon bo'ladi: **-(a) loq-, -choq-, -cha-; -kin-, -let-, -te-, -ok-, -ule-, -ling-** (*qizaloq, qo'zichoq, buzoqcha; islet, boykin, animacule, kitchenette, hillok, catling, firstling*), zaiflashgan ma'nosini beruvchi suffikslar **-(i)sh-; -ish** (*sarg'ish yuz, qizg'ish ufq; yellowish filter, greenish layer*).

Morfemali ko'rsatkichlarga solishtirma va orttirma daraja **prefikslarini** ham kiritish mumkin: **ba-; -(e)st** (*badavlat, baquvvat, basavlat, bag'oyat; biggest, smallest, greatest*); ser-g'ayrat, ser-suv, ser-xosil, kam-xosil, alp-komat, farishta-sifat, mol-fahm, tovuq-kalla, dev-sifat, bo'y-dor, joziba-dor maftun-kor, be-xad, ba-g'oyat; ba-davlat, ba-savlat, boy-ota, boy-vuchcha, pul-dor, pul-siz, nomdor, nomsiz va h.k. Ingliz tilida: supersoldier, supermarket/ supersonic, out-outfight, over- overcome, sub-due, sur-pass, ultra-violet.

Gradatsiyani so'z qo'shish usuli yordamida namoyon etuvchi birliklar mavjud bo'lib, bunda komponentlardan biri belgining darajasiga ishora qiladi, masalan **to'q ko'k, och sariq; whitish-pink, dark-blue, light-red** va boshq. Semantik ma'nosiga ko'ra bu kabi leksemalar, ko'pincha, rang va tuslarni bildiradi. Morfemali ko'rsatkichlarga shuningdek takror yordamida hosil bo'lgan LBni kiritish mumkin, masalan **asta-asta, tez-tez, uzun-uzun; far far away, a long long time** va boshqalar.

Morfologik birliklar (vositalar) chuqur va atroflicha o'rganila borilgan sari bu sathga oid bo'lgan graduonomiya ham yaqqol bilina boshlaydi. Masalan, A.Hojievning ko'makchi fe'llarga oid katta tadqiqoti bu funksional yordamchilarning semantik tizimida boshlanish faza (**boshla, kel, ket**) – bajarilish yoki davomlilik fazasi (**yot, tur yur, o'tir, bor, ber**) – tugallikka yaqinlashish fazasi (**qol, yoz**) – to'liq bajarilish fazasi (**bo'l, bit, bitir, chiq, yot, yubor, sol, tush**) kabi tadrijiy bosqichlanishlar (darajalanishlar) bor ekanligini ko'rsatdi[1.189].

Morfologik tizimning qurilishida mustaqil so'zlar – oraliq guruh (modal, undov, taqlid) – yordamchi so'zlar, fe'l – funksional formalar – ot, mustaqil so'z – mustaqil so'z/yordamchi so'z – yordamchi so'z kabi atashdan ifodalashga yoki lug'aviy semantikadan morfologik ma'nolar tomon yuzaga kelgan tadrijiy (darajali) shakllanishlar katta ahamiyatga ega. So'z turkumlaridan son sof miqdoriy darajalanish semantikasiga asoslansa, sifat so'z turkumida "kamlik – me'yor - ortiqlik" andazasi asosida ish ko'ruvchi daraja kategoriyasi mavjud. **Morfologik kategoriyalarning** xususiy ma'nolariga ham darajalanishlar xos: (*Gabriel Varden went his way towards London, thinking of a great many things, and most of all of flaming terms in which to relate his adventure, and so account satisfactorily to Mrs Varden for visiting the Maypole, despite certain solemn covenants between himself and that lady. Thinking begets, not only thought, but drowsiness occasionally, and the more the locksmith thought, the more sleepy he became*[1.189]. (Charles Dickens, Barnaby Rudge)

O'zbek tilida gradasiyaning ifodalashda kichaytirish ma'nosini ifodalashda **-cha, -chan, -loq/-aloq,-chak,-chiq** qo'shimchalarini qo'shilishi orqali hosil bo'lishini kuzatdik.

-cha elementi ham jonli, ham jonsiz predmet nomiga qo'shib, kichaytirish, erkalash, kamsitish ma'nolarini hosil qiladi: **kitobcha, yetimcha, otincha, g'g'ilcha** kabi. **-cha** ning ma'nodoshi bo'lgan **-choq** shaklining birinchidan, birikish qobiliyati ancha cheklangan, ikkinchidan esa faqat jonli predmet nomiga birikadi: **toychoq, qo'zichoq** kabi. Demak, **-cha** leksemasining ayrim so'z bilan birikish qobiliyatini cheklaydi, lekin boshqa bir turdagi so'z bilan birikish qobiliyatini kuchaytiradi-asos shakl birikish qobiliyatida o'zgarish yasaydi.

Ba'zan **-cha** shaklini olgan so'z kichiklik bildiruvchi **jajji, kichkina, mayda** kabi so'z bilan kengayishga ehtiyoj sezadi: **kichik kitobcha, mayda taqsincha, jajji Salimcha** kabi[6.35].

Kichaytirish ma'nosidagi **-gina** hamda erkalash ma'nosidagi **-gina** shaklining farqini uning morfologik shakl valentligidan ham bilsa bo'ladi. Chunonch, bolagina, qizgina, eplikkina, kichikkina so'zida **-gina** kichraytirish ma'nosini hosil qilib, uning miqdor ifodalovchi ayrim son bilan birikishini ta'minlaydi: **ikki enlikkina, uch qizgina, tort bolagina**. Ammo erkalash ottenkasi **-gina** shaklida bunday birikish cheklangan, o'zidan keyin egalik shaklining birida qo'llanilishiga hoslangan.

Umuman, morfologik gradatsiyalar morfologik kategoriyalar va so'z turkumlarining munosabatlarini kuchli-kuchsiz oppozitsiyalarda tashkil etuvchi hodisa bo'lib, bunda oraliq uchinchilik muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, morfologiyaning o'zi leksika bilan sintaksis o'rtasidagi oraliq uchinchidir. Bu holat, ko'rinishicha, morfologik graduonomiyaning leksik va sintaktik darajalanishlar bilan hamkorligiga asos bo'ladi: qirmizi (leksik) – qizilroq (morfologik) - haddan tashqari qizil (sintaktik) kabilar[2.86].

Leksik-semantik ko'rsatkichlar orasida ma'noni metaforizatsiyalash yordamida gradatsiyani ifodalovchi ko'rsatkichlarni alohida guruhga ajratish lozim, masalan, **hissiyotlar to'foni, sevgi ummoni**.

Leksik-semantik ko'rsatkichlar tarkibida turli so'z turkumlariga mansub bo'lgan, ma'nosida graduallik semalari bo'lgan so'zlar bo'lishi mumkin: **qahr (kuchli g'azab), a'lo (juda soz, juda yaxshi), bahaybat (juda katta), mitti (juda kichik), ancha, juda, bag'oyatda, sal; very, quite, rather, exceedingly**.

Leksik-semantik ko'rsatkichlar sifatida **kommunikativ metaforalar** ham namoyon bo'ladi, ular lisoniy metaforalardan farqli ravishda tayyor holda aytilmaydi, balki nutq jarayonida (matnda) shakllanadi: **Atamboevga og'rirroq zarba berish, aprely inqilobidan keyin ulardan ko'pchiligi imtiyozlar, yog'li joydan va o'g'irlangan mulkdan mahrum bo'lgani uchun qasd olish uchun**[10.2]; Bu holatda gradatsiya **yog'li (ko'p miqdorda yog'ga ega bo'lgan)** metaforasi orqali ifodalanyapti.

Lug'aviy darajalanish qatorlari graduonimlarning qaysi semantik turkumlarga (so'z turkumlariga) xosligi jihatdan farqlanadi va boshqa ma'noviy guruhlanishlarga (polisemiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, partonimiya kabilarga) nisbatan alohida o'rinni egallaydi. Lug'aviy darajalanish aslida semantik, ya'ni muayyan semani darajalash orqali yangi so'zlar hosil qilish (bir – ikki – uch, iliq – issiq – qaynoq, boy – o'rtahol – kambag'al kabi) usulidir[2.44].

Leksik-semantik ko'rsatkich sifatida sinonimiya ham namoyon bo'ladi, u semalar takrorlanishi (**semantik reduplikatsiya**) hisobiga gradatsiyani hosil qiladi: **"Take whatever you need," I yelled. Don't you always? I thought, my old anger and ecstasy rising up as unavoidably as a knee jerking when the doctor's hammer hits.** (Jennifer Weiner, Best friends forever); Bundan boshqa, uning Anvarga uchrashmay namoyishkor chiqib ketishi, qandaydir yana bir ma'noni onglatqandek ham bo'lar edi. Ra'noning yuzidagi qayg'u belgilari yo'qolib, uning o'rnini g'azab va jazava alomatlari oldi[2.37]. (Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon.) Keltirilgan misolda ikki yadroviy semaning takrorlanishini kuzatish mumkin: "belgining katta darajasi" gradual semasi va "g'azablanganlik" semasining birgalikda ular "quturish" va "jazava" sinonimik otlar semantikasida namoyon bo'ladi («g'azablanishning eng yuqori darajasi»).

Keyingi misolda sinonimiya LB takror bilan uyg'unlashadi: *'What a funny, what a hilarious boy you are!' said Aunt Louisa [2.98]. (W.Somerset Augham, Of human bondage);*(naqadar ayanchli, naqadar dahshat)

So'zlarning graduonomik qatorlarga tizilishi ma'lum bir belgi (asos, oppozitsiya belgisi) zaminida sodir bo'ladi. Masalan, "**ko'kintir**" belgisi asosida "**ko'kish - moviy**". Shuning uchun o'xshash belgilar asosida hosil qilingan bir yoki bir necha so'z turkumiga mansub graduonomik qatorlarni ajratish mumkin. Chunonchi, "yosh" miqdorining o'sib borishi asosida: ninni - ... qariya, o'smoq - ... qartaymoq ... ot qatorlari hosil qilinadi.

O'zbek tilida lug'aviy graduonomiyaning mohiyati bir necha so'zning ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga qarab lug'aviy ma'noviy qatorda tizilishida namoyon bo'ladi. Lug'aviy graduonomik qatorlar ko'pgina hollarda alohida bir yetakchi so'z (dominanti) atrofida birlashadi va lug'aviy ma'no guruhlarini oldiga qo'yiladigan barcha talablarga to'la-to'kis javob beradi. Lug'aviy graduonomik qatorlarda dialektikaning uch asosiy qonuni o'z in'ikosini topadi:

O'zbek tilshunos olimi Orifjonova Sh.[8.10] ning ta'kidlashicha: graduonomik qatorda belgini darajalanib, **oshib/kamayib** borishida miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi darajalanadi. Graduonomik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga bir-birini inkor etishida inkorning inkor qonuni namoyon bo'ladi,-deb ta'rif beradi olimi.

Sh.Orifjonova o'zbek tilida lug'aviy graduonomiyaning tadqiqiga oid izlanishida so'z turkumlarida darajalanish too'risida qisqacha ma'lumot berib, xar bir so'z turkumida graduonomik qatorlarga misollar keltirib o'tadi. Masalan, predmetni ifodalab kelganligi uchun ularda graduonomik qatorlarni ko'plab tuzish mumkin, deb xisoblaydi. O'zbek tilidagi konkret, abstarakt otlardan darajalanish qatorlari tuziladi, numerativ so'zlarda graduonomik munosabatlar esa yaqqol namoyon bo'lsadi: **kulba- xujra- uy- xovli- ko'shk- qasr- saroy- koshona**. Sh.Orifjonova sifatlarda yetakchi ma'no belgi-xususiyat bo'lganligi uchun ularda darajalanish yuqori bo'lishigini va fe'llar belgi yoki xolatni xarakterda ifodalagabliligi uchun ulardagi graduonomik qatorlar turlicha bo'lishi too'risida xam to'xtalib o'tadi[8.7].

O'.Raxmonov[9.8] ot va sifatlarda graduonomiyaning tadqiq etib, ushbu so'z turkumlariga oid so'zlar va ularning sinonimlari orasidagi gradual munosabatlarni aniqlab, ular ishtirokida darajalanish qatorlarini taqdim etadi[9.8]. Predmet nomini anglatuvchi so'zlar asosida graduonomik qatorlar tuzishda tabiat hodisalarining bir turdan ikkinchi bir turga o'zgarishida, havo oqimining tezligiga ko'ra **elvizaq- shabada- shamol- buron** shaklida darajalanish xosil bo'ladi. Shuningdek, joy nomlarini anglatuvchi semelarda, narsa-buyum nomlarining vazifasiga ko'ra, biologik mavjudotlarning vaqt o'tgan sari o'zgarishidagi xolatlariga ko'ra, shaxsining ijtimoiy xolati va mavqeiga ko'ra, vaqt va o'lchovni ifodalovchi so'zlarda va hajmining ortib borishiga ko'ra ham darajalanishlar mavjudligini izohlab, ular ishtirokidagi graduonomik qatorlar shakllantiriladi.

Ot leksik-semantik ko'lam jihatdan so'z turkumlari tizimida aloxida o'rin tutadi. Otning kategorial semantik tipi murakkab semantik rang-baranglikda namoyon bo'ladi. Chunki 1) ot moddiy va taraqqiy olamni narsalar nomini xam ini'kos ettiradi; 2) otlar an'anaga ko'ra **konkret-abstrakt, yakka jamlovchi, atoqli-turdosh** kabi zidlanishlarda o'rganiladi. Oppozitsiyalar o'rtasida ham oraliq bor deb xisoblanib:

a) "konkretlik belgisining kamayib (abstraktlik belgisining oshib) borishida: **kitob** (konkret) – **mamlakat** (konkret/abstrakt) – **sevgi / orzu** (abstract)

b) “yakkalikdan ko‘plik tomon borish belgisida: kitob (yakka) – etik- xalq/armiya (chegaralangan, jamlik) – qum (bexisob ko‘plik) kabi misollarni keltiradi. Albatta bunda misol tariqasida berilgan leksemalardan graduonimik qator hosil qilib bo‘lmaydi, ya’ni kitob-mamlakat-sevgi kabi. Lekin konkret- konkret/abstrakt- abstrakt tarzida darajalanish qatorini shakllantirishimiz mumkin. Ushbu qatorni quyidagi formulasini ham keltirish mumkin: **K -K/A- A.**

Albatta, bu oppozitsiyalarda ko‘rsarilgan misollar bilan darajalanish qatorini xosil qilib bo‘lmaydi, balki bu turlarning o‘zida, yani qarama-qarshi zidlashuvlar va uchinchi oraliqlar yordamida darajalanish qatorini tuzish mumkin.

Shuningdek, ot so‘z turkumi kategoriyalarida ham gradasiya kuzatiladi. Masalan, **son** kategoriyasida gradasiya birlik va ko‘plik tarzda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida “birlik” tushunchasi quyidagi zidlanishlarda ishtirok etish mumkin: birlik – birlik emaslik, birlik – ikkilik, birlik – juftlik, birlik – ko‘plik” kabi. Modomiki, **son** so‘z turkumiga oid **bir** so‘ziga **bir, ikki, uch...**deb sonlarni qo‘shib ko‘paytirib borganimiz bilan so‘zdagi sema ottenikasi kuchayib yoki aksincha ko‘payib qolmaydi, faqatgina miqdor ortadi. Miqdorning ortishini sonlar bilan emas, miqdor ortganligini ifoda etuvchi alohida leksema yordamida ifodalash orqali graduonimik qatorini tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ergalik kategoriyasida ham egalik qo‘shimchalarini olish orqali. Egalikning uzoqlashib borish darajasi ko‘zga tashlanadi: **kitobim – kitobing – kitobi**. O.Bozorov “predmetning ma’lum shaxsga mansublik” mazmuni o‘zbek tilining hilma-hil sintaktik konstruksiyalarida turlicha ifoda formalariga ega[3.179], deb hisoblaydi. Kitob menga qarashlik, kitob men uchun olingan, kitob meniki, kitobim. Bunda qarashlilik ma’nosi ifoda kuchining pasayib borishni kuzatish mumkin. Bir bu darajalanish qatorini biroz o‘zgartirgan bo‘lar edik. Agar qarashlilik ma’nosining kuchayib borishi bo‘yicha ifodalaydigan bo‘lsak, **kitob menga qarashlik- kitob men uchun olingan -kitob meniki – kitobim** tarzida darajalanish qatorini tuzish mumkin. Chunki qarashlilik so‘zi tegishli, uniki ekanligini ifodalasa ham, aynan egalik haqidagi tushunchadan biroz yiroqroq. Men uchun olingan, menga tegishli bo‘lsa ham, menda emas degan ma’noni anglash mumkin. Kitob meniki va kitobim shakllarida esa egalik aynan o‘ziga tegishlik ekanligini, ayni payitda o‘zida ekanligini ifoda etadi. Ushbu jixatlarga ko‘ra, bu graduonimik qatorni qarashlilik ma’nosining kuchayib borishiga ko‘ra, deb ifodalash mumkin.

O‘zbek tilida xajm belgisi semasiga ko‘ra tuzilgan **tomchi – ko‘lmak – xovuz – suv ombori – ko‘l – dengiz – ocean** darajalanish qatorida tomchini aynan suyuqlikning zarrasi deb olinib, suvning to‘planishidan xosil bo‘lgan joy nomlarini hajm jihatidan ketma-ketlikda ko‘rsatib o‘tilgan. Shu o‘rinda biz ham otlarda darajalanishga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin: suvning oqish yo‘nalishi hajmning qattalashib borishiga ko‘ra: **jilga – ariq – soy/anxor- qanal – daryo**. Predmetlikni anglatuvchi so‘zlarda darajalanish tabiatdagi mavjudlikning bir xolatdan ikkinchi bir xolatga o‘tishii ham ifodalab, **go‘dak-bola- erkak/ ayol -chol/kampir; nihol – ko‘chat - daraxt** kabi graduonimik qatorlarni misol keltirish mumkin. Demak, ot so‘z turkumiga oid leksemalar xajmning ortib yoki kamayib borishi, bir holatdan ikkinchisiga otishi, joylashuv o‘rni, jamiyatdagi mavqeiga ko‘ra darajalanadi.

Ingliz tilida xam **ot** so‘z turkumiga oid bo‘lgan so‘zlardan tuzilgan darjаланish qatorlarini keltirish mumkin. Masalan, xajm belgisi semasida **drop – pruddle/pool-resevoir- -lake – sea – ocean**; tabiatdagi mavjudlikning bir xolatdan ikkinchi bir xolatga o‘tishini xam ifodalovchi **baby – child – mam\woman – old; seed – seedling – sapling – tree** kabi qatorlar.

O'zbek tilida belgi-xolat anglatuvchi leksemalarning (sifatlar) darajalanishida, lug'aviy jixatdan olib qaralsa, sifatlar o'zaro ta'm belgilari (*shirin – uchuchuq – nordon – achchiq*), **rang** (*moviy – ko'k – yashil*), **xajm** (*bo'sh – yarim – to'la*), **harorat** (*iliq – issiq – kaynoq*), **yosh, payit semalari** (*kenja – o'rtancha – to'ng'ich*) kabi bir necha ma'nolarga ko'ra darajalanish qatori xosil qilinadi. Sifatlarning morfologik darajalanishiga ko'ra, sifat darajasi kategoriyasining shakllanishi asosida taqqoslashning yaqqollikdan mavhumlikka (yaqinlikdan uzoqlikka, muhimlikdan nomuhimlikka) yo'nalgan darajalanishlar mavjud deb, quyidagi darajalanish qatorini keltiradi: *yaqqol quyos – noto'liq yaqqol quyos – noyaqqol qiyos*.

O'zbek tilshunos olimlaridan biri J.Jumaboyeva[4.137]ning monografiyasida sifatlar darajalanish qatorlari haqida ma'lumotlar berilishicha: Sifat so'z turkumi- sifatlar darajasini xosil qilishda imkoniyati bir muncha keng leksemalarni o'z ichiga olgan so'z turkumi hisoblanadi. Ushbu so'z turkumida darajalanish rang belgisi bo'yicha keltirilgan qatorlarni barcha rang ottenkalari bilan ko'paytirib, ularning nomlari bilan, masalan, **qizil – qirmiz** kabi qatorni kegaytirish mumkin. Shuningdek, ba'zi bir sifatlarga shevaga yoki o'zaki nutqqa hos bo'lgan leksemalar bilan birgalikda, graduonimik qatorini tuzish qilish mumkin: *ertangi – chilgi – kechagi*[4.137].

Ingliz tilida sifat so'z turkumiga oid bo'lgan darajalanish qatorlarini ingliz tilida quyidagicha berish mumkin: **hajmda**: *empty – half – full*; **haroratda**: *warm – mild – balmy – hot*; **o'zaro ta'm bergilarida**: *sweet – sour – bitter*; **rangda**: *dark – bright – light*[4.137].

Fe'llar ma'no mundariyasi va miqdori jihatdan boy bo'lganligi sababidan ulardagi semantik kategoriyalarda o'zaro farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi va sememalarning darajalanishi kuzailadi. Shuningdek, fe'llarning Grammatik kategoriyalari to'liq shakllanganligi bois kategoriyalar orasida ham o'zaro graduonimik munosabatlarni ilg'ash mumkin. Tilshunos olim O.Bozorov nomzodlik dissertasiyasining Grammatik va lug'aviy sistemada darajalanishi bobida fe'l sememalariga doir ko'plab misollar berib o'tgan. Olim dissertasiyaning bu bobida fe'llarning turlarga ajratib ko'rsatadi. Ularni quyidagicha ifodalaydi: nutq fe'llari, ruhiy holat fe'llar, jismoniy, biologik aqliy harakat va munosabtni ifodalovchi fe'llar va fizik holatni ifodalovchi fe'llar kabi ma'noviy guruhlarga mansub bo'lgan leksemalarning darajalanish qatorlarini keltirib o'tgan[2.183]. O'zbek tilshunos olimasi Djumaboyeva[4.17] o'zining monografiyasida ham fe'llarda darajalanish harakatdan anglashilgan bir necha ma'nolar bo'yicha, ya'ni semantic kategoriyalar bo'yicha tahlil etilib, graduonimik qatorlar hosil qilinadi. Lug'aviy sistemada graduonimik qatorlar hosil qilish imkoni ko'proq bo'lib, ularda so'z ma'nolarining tadrijiy o'sishi yoki pasayishi aniq ifoda etiladi. Grammatik sathdagi kabi aniqlik kasb etmaydi[7.6]-deb fikrlar keltiradi tilshunos olim M.Otaboyeva.

O'zbek tilida: qaramoq-tikilmoq-baqraymoq-o'qraymoq; olmoq-tutmoq-ushlamoq-qismoq; yemoq-chaynamoq-yutmoq;

Ingliz tilida: skim-read-scan; help-aid-support; start-continue-stop; stir-advance-move-leave; mutter-whisper-speak-shout.

3.Sifat: O'zbek tilida darajalanish hodisasini, jumladan, morfologik graduonimiyani mahsus tadqiq qilgan O.Bozorov bu holatni o'rganib, quyidagini bildiradi: "An]anaviy tavsifga ko'ra, daraja kategoriyasi ichki, ya'ni hususiy grammatik ma'nosiga ko'ra **"oddiy"-qiyosiy-orttirma**" kabi tasnifga ega bo'lsa, keyingi ishda "orttirma-ozaytirma-qiyosiy", "oddiy(normal)-orttirma-ozaytirma, ozaytirma-orttirma" kabi klassifikassiya uchramoqda[3.24]. Sifat daraja shakliga o'z munosabatini bildirgan yana bir tilshunos olim professor Sh. Shahobiddinova

belgining darajasida qiyoslash bilan bir qatorda darajalanish ma'nosi ham borligi, ammo bu leksema semasi hususiyatidan kelib chiquvchi holat ekanligini qayd etib, o'zbek tilshunosligida qiyoslash kategoriyasini olib kiradi, hamda uning ikki a'zo(o va -roq) dan iborat ekanligini bildiradi.

Sifat darajasi shakli tizimiga ana shunday yondashilganda, u umumiy Grammatik ma'nosiga "belgi darajasi" mujassamligini ko'rish mumkin. faqat asliy sifat o'zgara oladigan mazkur shakl uchta ajratiladi: oddiy, orttirma, ozaytirma. Sifat gradasiyasini fonetik usulda ham uchratishimiz mumkinligini ham tadqiqotimiz davrida guvohi bo'ldik. Masalan, *yamyashil, dum-dumaloq, bus-butun, bo'm-bo'sh*; leksik sathda nihoyatda *baland, benihoya go'zal, kattadan-katta, shirindan-shirin* kabilar. ozaytirma darajada umumiy Grammatik ma'no "belgining me'yordan kamligini ifodalsh" tarzida voqelanadi, parchalanadi. Morfologik ko'rsatkich **-roq** qo'shimchali shakli ozaytirma deb nomlashni oqlaydigan yana bir asos shundaki, bu qo'shimchali so'z hoh me'yoriy, hoh okkasional qo'llanishda bo'lsin, semantic funksioanl jihatdan (Grammatik struktur jihatdan emas) olmoshsimon "bir oz" hosilasi ma'nosiga ega [3.98].

kattaroq-bir oz kata

kichikroq-bir oz kichik

shoshmayroq-bir oz shoshmay

uyalibroq- bir oz uyalib

Bu modellashtirilsa, chunonchi: kattaroq-bir oz kata-katta(-roq, -bir oz)

Bayon etilgan fikr **-roq** shaklining o'zi birikib kelgan so'zning semantic-sintaktik valentligiga ta'siri hususiyati bilan tasdiqlanadi. Chunki-roq qo'shimchali so'z, odatda me'yordan ko'plikni ifoda etuvchi son, olmosh, sifat bilan birika olmaydi. Masalan, *kattaroq* leksemasi *sal, bir o z, bir muncha kattaroq*. Lekin *juda kattaroq, nihoyatda kattaroq* kabi birikuvni hosil qilish miqdoriy oshiqlikni ifoda etuvchi juda, nihoyatda so'zi bilan birika olmaydi. Vaholanki, *sal kata, juda katta* kabi birikish me'yoriy.

Ingliz tilida: empty-half-full; warm-mild-balmy-hot; sweet-sour-bitter; dark-bright-light;

4.Olmosh: O'zbek tili grammatikasida olmoshlar darajalanishi unchalik ham katta qarmovga ega emas deb hisoblaymiz. Bunga sabab, olmosh so'z turkumi lug'aviy ma'nolarida real borliqni aks ettira olmaydi. Gradasion paradigmada sodir bo'layotgan voqae-hodisalarni ko'rsatish ma'nolarida, *bu - shu - ana u*; nutq ishtirokchilarning makoni yaqin uzoqligida: *men - sen - u; biz - siz - ular* va sonning o'sishida; miqdoriy belgilarni ifodalovchi semalarda *xamma - ba'zi - hech* kim tarzida darajalanish qatori orqali yoki, uni kengaytirgan xolda, "shaxslar sonining ko'plikdan kamayib borishiga ko'ra *barcha/beri/xamma - ba'zilar/ ayrimlar-har kim-hech* kim [3.94] shaklidagi ma'no jihatdan teng bo'lgan so'zlarning sinonimlari bilan berilishi orqali darajalanish qatorlarini hosil qiladi. Olmoshlardan quyidagicha graduosion qatorlarni tuzish mumkin: ko'rsatishning uzoq-yaqinligiga ko'ra: *bu-shu-o'sha, anovi; mana-ana-ana u-ho'v ana u*. Olmosh so'z turkumi leksemalar va ularning ma'nodoshlari soni unchalik ham ko'p bo'lmaganligi sababli, ularda hosil qilinadigan darajalanish qatorlari kam sonni tashkil etishini tadqiqotimiz davrida kuzatdik.

Ingliz tilida esa kishilik olmoshlarida gradasion paradigamani kuzatish mumkin: gapiruvchi ishtirokinging yo'qolib borishiga ko'ra: ***I-we-they***; gumonlik darajasining ortishiga

ko'ra: **somebody*anybody-nobody**; I shahsning atalishida ifodaning kuchayishiga ko'ra: **I-myself-my own**[7.65] kabilar.

5. **Ravish**: O'zbek tilida ravishlarda gradasion paradigmani harakatning payti belgilarida **hali-hozir-keyin**; harakatning miqdor belgilarida **ko'p-son sanoqsiz-behisob**; harakatning holat belgilarida **och-ochin-to'qin-to'q** namoyon bo'lishini keltirib o'tish mumkin[7.89]. Bozorovning[3.183] ravishda gradasiyani ishlatilishi haqidagi fikrlarini ham keltirib o'tsak: Ravishlarda morfologik darjalar sifatlardagi kabi namoyon bo'ladi,-deb ta'rif berib o'tgan olim. M. Otabayeva[7.32] ravishlarda darajalanishga quyidagi misollarni keltiradi: **kecha-bugun-erta**; **bomdod-peshin-asr-shom-hufton** kabilarni keltirib ravishlar graduonimik qatorini ko'rasatib o'tgan.

Ingliz tilida ham ravishlarda gradasion paradigmani ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, **o'rin ravishlarida** predmetning ob'ektidan uzoqlashishiga ko'ra: **here-there-over there**; paytni ifodalashiga ko'ra: **yesterday-today-tomorrow**; daraja-miqdorni ifodalashiga ko'ra: **little-normal-more**; holat ravishlarida: **badly-well-perfectly** kabilar...[7.56].

6. **Sonlarda** darajalanish borasida J.Djumabaevaning monografiyasida quyidagilar keltirilgan: "... sanoq sonlar har bir ijtimoiy, ilmiy va boshqa sohalarida xam qo'llanilishi, sonlarning ketma - ket kelishi har doim bir xil va uni darajalanish qatori sifatida ko'rsatishning hojati yo'q deb hisoblaymiz..."[4.137].

Sonlarda darajalanishga burchaklar sonining ortib borishiga, ko'ra, **uchburchak - to'rtburchak** ... va hoqazo. **Masofani anglatuvchi birliklar**: millimeter - santimetr - decimetr - metr - kilometr; **og'irlik o'lchov birliklari**: milligram - gramm - qilogramm - chentner - tonna; **miqdor jihatdan qism va bo'laklarni ifodalovchi otlar bilan ishlatiladigan so'zlarda darajalanish**: nimchora - chorak - yarim - butun; **son miqdorni ifodalovchi so'zlarda**: oz - meyorida - ko'p; siqim - hovuch - kuchoq. Bizningcha, son so'z turkumida darajalanishni raqamlar orqali emas, balki miqdorni anglatuvchi leksemalar orqali ifodalash o'rinlidir.

Ingliz tilida sonlarda darajalanish o'zbek tili kabi sanoq va **tartib sonlarning o'sish** tatibida berilishi orqali namoyon bo'ladi. **First - second - third - fourth**. Geometrik shakllarning nomlanishi va ularda **burchaklar sonining ortib borishiga ko'ra**: triangle - quadrangle - pentangle; **masofada**: millimeter - sentimeter - decimeter - meter - kilometer; **og'irlikni o'lchashda**: milligram - cenrigran - gram - kilogram - ton shuningdek, masofa va og'irlikni o'lchash birliklarida ham darajalanishlarni kuzatish mumkin.

O'zbek tilida son so'z turkumining leksik ma'no tizimi aniq darajalanishga (sanoq birliklarining izchil oshib borishligi) asoslanadi. Bundan tashqari, sonlar 0 nuqtadan musbat va manfiy yo'nalishlardagi darajalanishlarga ham ega. Son so'z turkumidagi ba'zi graduonimik qatorlar **ot** so'z turkumidagi darajalanishshlarga aylanganligini **juda yomon ("1") - yomon ("2") - qoniqarli ("3") - yaxshi ("4") - alo ("5")**[3.137] darajalanish qatori bilan misol keltirish mumkin. Bizningcha, bu ta'lim jarayonidagi baholanishga oid bo'lgan sonlarni so'z bilan ifodalayotgan leksemalar otdan ko'ra ko'proq sifat so'z turkumiga tegishli bo'lib, baho sifatining darajasini belgilaydi. Son so'z turumining norma yasalishlarida turlicha sanash mazmunlari yonalishlariga oid graduonimik qatorlar hosil qilingan. Hususan, tartib sonlar qatori sonlarning sifatlovchilik belgilariga ega **birincha toifa - ikkinchi toifa - uchunchi toifa...; birinchi bob - ikkinchi bob** ... kabilar.

Адабиётлар/Литература/References:

1. А. Ҳожиёв. Ўзбек тилидаги кўмакчи феъллар. Тошкент 1966. Б. 188 (189 б.)
2. О. Бозоров. Ўзбек тилида даражаланиш. фил. ф. док. дисс. автореф. Тошкент 1997. Б. 16.
3. Bozorov O.O'zbek tilida darajalanish.-T.:Fan, 1995,-B.23-94.
4. Djumabaeva J. O'zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya.
5. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. - B.137
6. Ne'matov H. So'z yasash qolipi. yasalgan va yasama so'z hususida// O'zbek tili va adabiyoti, 2003.-№.1.
7. Otaboyeva M.Ingliz va o'zbek tillarida fe'llar graduonimiyasi. Dissertasiya. Andijon. 2022
8. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonomiya: Filol. Fan. Nomz. ... diss. Avtoref. – Toshkent, 1996.- B.7-
9. Raxmonov O'. Ko'rsatigan manba. –B.8.
10. <https://kun.uz/news/2019/06/22>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).